

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI



O'ZBEK FOLKLORI
O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:

100000 – Ta'lim

Ta'lim sohasi:

110000 – Ta'lim

Ta'lim yo'nalishi:

60110700 – O'zbek tili va adabiyoti

Fan/modul kodi O'F1105		O'quv yili 2024-2025	Semestr 1	ECTS - Kreditlar 5	
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)		Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	O'zbek folklori	60		90	150
2.	I. Fanning mazmuni. Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarni o'zbek folklorining tarixiy asoslari, xalq og'zaki ijodining (epik, dramatik, liro-epik va maxsus tur) namunalari (tushunchalar, nazariyalar va ularning isboti, sohaning amaliy masalalarini yechish usullari va boshqalar) bilan tanishtirishdan iborat. Ayni paytda u talabalarni shu sohada mantiqiy fikrlashga, ilmiy xulosa chiqarishga, tarixiy adabiyotning nazariy va amaliy muammolarini hal etish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Fanni o'qitishning vazifasi – talabalarga o'zbek folklori fanining ahamiyati, o'zbek folklorining tarixiy asoslari va nazariy masalalariga oid bilim va tushunchalar berish, folklorning mavzui, mazmun-mundariyasi, hozirgi kun bilan bog'liqligi va boshqa sohalar bilan munosabati, o'zlashtirilgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olishga o'rgatish va natijada talabalarda o'zbek folklorining asoslari, og'zaki va yozma folklorining shakllanish bosqichlari kabilarni bilish, o'z fikrini hayotiy misollar orqali asoslash, o'rganganlarini amalda qo'llay olishga o'rgatishdir. II. Nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: 1-mavzu. Mustaqillik davrida “O'zbek xalq og'zaki ijodi”ni o'rganishning yetakchi masalalari. Folklor ma'naviy tarbiyaning poydevori. Xalq og'zaki ijodi so'z san'ati sifatida. Folklorning so'z san'atiga aloqasi. Mahorat va fikriy kashfiyot. Xalq og'zaki ijodi namunalari. 2-mavzu. Mif va uning badiiy talqinlari. Afsona, rivoyat, naqlarning badiiyati. Mif tushunchasi. Mifologik tafakkur. Afsona, rivoyat, naql, epos, ertak, qo'shiq atamalari. To'maris va Shiroq afsonalari. 3-mavzu. Mavsumiy folklor namunalari Mavsumiy folklor. Xalqona taqvimlar. Navro'z. Sust xotin, Choy momo, loy tutish. 4-mavzu. Oilaviy marosim folklori Oilaviy marosim janrlari. Yor-yor, kelin salom, o'lanlar. Folklorida obrazlar tizimi.				

5-mavzu. Xalq dostonlari. Doston janri. Xalq baxshilari. Dostonchilik maktablari. Dostonlarning tasnifi. Xalq dostonlarida turkumlilik. 6-mavzu. Qahramonlik dostonlari. “Alpomish” turkumidagi dostonlar. Epos va etnos masalasi. Yetakchi qahramonlar genezisi. Asosiy motivlar syujeti. Epik qoliplar. An'anaviy she'riy takrorlar. 7-mavzu. “Go'ro'g'li” turkumidagi dostonlar. “Go'ro'g'li” dostonlarining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari. Epos va etnos masalasi. Yetakchi qahramonlar genezisi. Asosiy motivlar syujeti. Epik qoliplar. An'anaviy she'riy takrorlar. 8-mavzu. Romanitik dostonlar. “Ravshan”, “Qunduz va Yulduz”, “Kuntug'mish” dostonlari tasnifi. Obrazlar poetikasi. 9-mavzu. Romanitik dostonlar tahlili. “Malika Ayyor”, “Orzigul” dostonlari poetikasi. Syujet tiplari. Badiiy tasvir vositalari. 10-mavzu. Xalq ertaklari. Ertak – xalq og'zaki ijodining eng qadimiy janri. Ertaklarning janr xususiyatlari. Mazmuniga ko'ra tasnifi. 11-mavzu. Mehnat qo'shiqlari va termalar. Mehnat qo'shiqlari namunalari. Termalarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari. Baxshilar ijodi. 12-mavzu. Bolalar folklori. Bolalar folklori tasnifi. Bolalar qo'shiqlari. Bolalar o'yin folklori. 13-mavzu. Lirik qo'shiqlar. Lirik qo'shiqlarga xos xususiyatlar. Ohang yo'llari. An'anaviy takrorlar. Ramz va timsollar. Qo'shiqlarning janr xususiyatlari. 14-mavzu. Xalq maqollari va topishmoqlar. Paremiologiya haqida ma'lumot. Maqollar badiiyati. Obrazlilik, o'z va ko'chma ma'no. Topishmoq – paremik janr sifatida. Topishmoqlar poetikasi. Topishmoqlarning badiiy xususiyatlari. 15-mavzu. Askiya. Latifa va lofflar. So'z o'yinlari. Askiyaning o'ziga xos xususiyatlari. Payrov. Gulmisiz, o'xshatdim turlari. Omonim so'zlardan foydalanish mahorati. Latifa – kichik	
--	--

nasriy janr sifatida. Nasriddin Afandi obrazi genezisi. Ovul Patta va Jiyron Chechan kabi qahramonlar. Loflarda mubolag'a san'ati. Mubolag'a va uning turlari. III. Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi: 1. Mustaqillik va xalq og'zaki ijodi. Xalq og'zaki ijodining o'ziga xos belgilari. 2. Mif, afsona, rivoyatlarning janr xususiyatlari. 3. "Navro'z" bayrami an'analari. 4. Oilaviy marosimlar tadrifi. Alla, kelin salom, yor-yorlar. 5. Baxshichilik san'ati, dostonchilik maktablari. 6. "Alpomish" dostoni talqinlari. 7. "Go'ro'g'li" turkumi dostonlari tahlili. 8. "Kuntug'mish" dostoni tahlili. 9. "Malikai Ayyor" dostoni tahlili 10. Xalq ertaklarida timsollar talqini. 11. Mehnat qo'shiqlari namunalarining qiyosiy tahlili. 12. Bolalar qo'shiqlari va ertaklari tahlili. 13. Lirik qo'shiqlar. 14. Xalq maqollari va topishmoqlari talqini. 15. Latifa, lof, askiya va tomosha san'ati janrlari tahlili. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar Mustaqil ta'limni baholash – bu talabalarining jamoaviy tartibda va yakka tartibda berilgan amaliy loyihalarni bajarishlari orqali amalga oshiriladi. Bunda har bir talabaga bitta jamoaviy loyiha va ikkita yakka tartibda bajariladigan loyiha beriladi. Talaba berilgan loyihaning maqsad va vazifalarini, mohiyatini tushungan holda qo'yilgan masalani o'rganib, izlanishlar olib boradi. Olingan natijalarni tahlil qilib, xulosalari bilan taqdimotlar tayyorlab himoya qiladi. Ishchi fan dasturida loyihalarning soni, mavzusi, mazmuni bajarish usullari va topshirish muddatlari to'liq ochib beriladi. Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular: 1. Folklor va badiiy adabiyot munosabatlari. Folklorizm tushunchasi. 2. Individual ijodkorning xalq og'zaki ijodidan foydalanish mahorati. 3. Mustaqillik sharoifatida xalq og'zaki ijodining davlat maqomiga erishuvi. 4. Akademik litseylarda xalq og'zaki ijodi fanining o'qitilishidagi o'ziga xos tamoyillari. 5. Xalq og'zaki ijodida matn an'anasi. Epik janrlarda adabiy-badiiy qoliplar va an'anaviy tasvir vositalari. 6. Xalq og'zaki ijodidagi an'anaviy obrazlar. 7. Bolalar folklori materiallari asosida mazkur folklor namunalarining o'ziga xos belgilarini aniqlash. 8. Xalq ertaklarini o'rgangan folklorshunos olimlar faoliyati.	
---	--

	9. M.Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asaridagi folklor materiallari. 10. Hodi Zarif hayoti va ijodiy faoliyati. 11. Xalq og'zaki ijodi xalq qadriyatlarining tarkibiy qismi sifatida. 12. Jangovar ot obrazining tarixiy asoslari va badiiy talqini. 13. "Dada Qo'rqut kitobi" va "Alpomish" dostonining qiyosiy tahlili. 14. Xalq qo'shiqlaridagi timsollar. 15. Ertaklarda qo'shaloqlashirish usuli. 16. Paralelizm – o'zbek xalq qo'shiqlarining tarkibiy qismi sifatida. 17. "Kuntug'mish" dostonida psixologik holatning ifoda etilishi. 18. Alisher Navoiy ijodida folklor an'analari. 19. O'zbek folklorshunosligining tadrifiy taraqqiyoti. 20. To'ra Mirzayev va Mamatqul Jo'rayevlarning o'zbek folklorshunosligiga qo'shgan hissasi. 21. Epik janrlarda adabiy-badiiy qoliplar va an'anaviy tasvir vositalari. 22. Mif va yozma adabiyot 23. "Sab'ai sayyor" dostoni va folklore an'analari 24. "Avesto" va o'zbek folklori 25. Mif va uning Alisher Navoiy ijodiyotidagi o'rmi 26. Alisher Navoiy ijodi va "Avesto" mifologiyasi 27. O'zbek xalq qo'shiqlarining tasnifi masalalari 28. Epos va roman 29. Voqelik va xayolot uyg'unligi 30. Jabbor Eshonqulning "Epik tafakkur tadrifi" asari tahlili
3.	VII. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: - "O'zbek folklori" fani doirasida talabalarining nazariy bilimlarini mustahkamlash, xalq og'zaki ijodining sinkretik san'at ekanligini, boshqa san'at turlaridan farqli jihatlarini ko'rsatib berish, O'zbek folklorining tarixiy taraqqiyot bosqichlarini, O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng xalq og'zaki ijodi davlat maqomiga erishganligi haqidagi tasavvurga ega bo'lishi; (bilim) - "O'zbek folklori" fani doirasida talaba xalq og'zaki ijodi janrlari va ularning xususiyatlarini aniqlashi, janrlaro munosabat mezonlarini belgilashi, folklor va adabiyot munosabati haqida tushuncha hosil qilishi; (ko'nikma). - "O'zbek folklori" kursini o'zlashtirgan talaba xalq og'zaki ijodi namunalari sinkretik san'at sifatida xalq hayotida muhim o'rin tutishini, unda o'zbek xalqining asrlar davomidagi ijtimoiy, maishiy, madaniy hayoti o'zining badiiy ifodasini topganini, xalqning o'z vatani uchun iftixor tuyg'usi aynan og'zaki ijod zaminida tashkil etishi ko'nikmalarini shakllantirish. - talabalar o'zbek xalq og'zaki ijodining jahon folklori merosida munosib o'rin egallashini anglashi va mazkur ta'sir haqida o'zining tahliliy, tanqidiy mulohazalarini bayon eta bilish malakalariga ega bo'lishi kerak.
4.	VIII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar;

	•seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); •guruhlarda ishlash; •taqdimotlarni qilish; •individual loyihalar; •jamoa bo'lib ishlash va hisoya qilish uchun loyihalar
5.	IX. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar va tushunchalar haqida mustaqil mushohada yuritish, jo'riy va oralq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha variantlar asosida yozma topshiriqlarni bajarishi zarur.
6.	X. Asosiy adabiyotlar: 1. Madayev O., Jo'rayev M., Sabitova T., Muhiddinova N. O'zbek folklori. Darslik. - T.: "Zebro - Print", 2022. 2. Muhiddinova N. O'zbek folklori. O'quv qo'llanma. – Samargand, 2019. XI. Qo'shimcha adabiyotlar 1. Турдимов Ш. Этнос ва эпос. - Т.: "Ўзбекистон", 2012. 2. Ўзбек халқ эртаклари. Икки жилдлик. II-жилд. Тузувчилар: М.И. Афзалов, Ҳ. Расулов, З. Хусаинова. –Тошкент: Фафур Фулом номидagi Адабиёт ва санъат нашриёти, 1996. 3. Эшонкулов Ж. Эпик тафаккур талдрижи. - Т.: "Фан", 2006. 4. Раҳмонов Н. О'zbek адабиёти тарихи - Т.: "Sano-standard", 2017. 5. Vohidov R., Eshonqulov N. O'zbek mustoz adabiyoti tarixi. O'quv qo'llanma. - T.: "Adabiyot jamg'armasi" nashriyoti, 2006. 7. Orzibekov R. O'zbek adabiyoti tarixi. – T.: 2006. 8. Қосимов Б. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. – Т.: 2004. 9. Каримов Н. Истиқлол даври адабиёти. Дарслик. – Т.: "Янги нашр", 2010. Аxborot манбаларі http://www.edu.uz—O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi sayti http://www.uzedu.uz – O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi sayti www.natlib.uz (A.Navoiy nomidagi O'z.MK) www.ziyouet.uz - Ziyouet axborot-ta'lim resurslari portal www.cspi.uz – Chirchiq davlat pedagogika universiteti rasmiy sayti
7.	Chirchiq davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2024-yil-“<u>28</u>” <u>08.11.2024</u> dagi qarori bilan tasdiqlangan
8.	Fan/modul uchun ma'sul: T.Sabitova – CHDPU, “O'zbek adabiyotshunosligi” kafedrası dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

9.	Taqrizzchilar: A.Tilovov – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat o'zbek tili va adabi universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi S.Matchanov – CHDPU, “O'zbek adabiyotshunosligi” kafedrası profess pedagogika fanlari doktori
----	--